



Received: January 4, 2025
Accepted: February 21, 2025
Available online: February 25, 2025

Fazilat Sharipova

Doktorant
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

BADIIY DISKURSDA PRAGMATIK MAZMUN VA UNING TARJIMADAGI TALQINI

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotda badiiy diskursdagi pragmatik mazmunni aniqlash va uning tarjimadagi talqiniga oid masalalar o'rganilgan. Tadqiqotning maqsadi – badiiy matnning pragmatik mazmunini aniqlash, uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish va badiiy tarjimada ushbu mazmunni aks ettirishning metodologik yondashuvlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida pragmatik hodisalar – propozitsiya, referensiya, relevantlik, inferensiya, deysis, presuppozitsiya va implikaturalarning xususiyatlarini aniqlash, ularning badiiy tarjimada qay darajada aks ettirilganligini o'rganish, tarjimonlar tomonidan bu hodisalarning qanchalik samarali qo'llanilganini tahlil qilish, shuningdek, tarjima jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash belgilandi.

Tadqiqot metodlari sifatida lisoniy tabdil, matn variantlarini qiyoslash, lug'atlardan foydalanish, lisoniy birliklar indeksini tuzish singari usullardan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy matndagi pragmatik mazmunni to'liq aks ettirish uchun tarjimon chuqur lingvistik va ekstralingvistik bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Matnning denotativ va signifikativ qatlamlarini to'g'ri talqin qilish, axborotni o'quvchiga aslyat matndagi estetik zavqni saqlagan holda yetkazish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, pragmatik hodisalarning, jumladan, deysis, presuppozitsiya va implikaturalarning tarjimada to'g'ri ifoda etilishi matnning kommunikativ samaradorligini belgilaydi hamda badiiy tarjimaning pragmatik mazmunini shakllantirish va ifodalash masalalarini chuqur o'rganib, ushbu jarayonning

Fazilat Sharipova

DSc Student
Doctor of Philology in Philological Sciences (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: sharipovafazilat356@gmail.com
ORCID iD: 0009-0006-1101-7790

PRAGMATIC CONTENT IN LITERARY DISCOURSE AND ITS INTERPRETATION IN TRANSLATION

ABSTRACT

This study investigates the pragmatic content of literary discourse and its interpretation in translation. The research aims to analyze the pragmatic content of literary texts, examine their structural elements, and determine methodological approaches for reflecting this content in literary translation. The objectives include examining pragmatic phenomena such as propositions, reference, relevance, inference, deixis, presupposition, and implicature; evaluating the efficacy of conveying these elements in translation; and identifying challenges translators encounter in preserving the pragmatic essence of the source text.

The methodologies employed encompass linguistic transformation, comparative analysis of text variants, utilization of dictionaries, and construction of indices of linguistic units. The findings indicate that accurately reflecting the pragmatic content of literary texts necessitates translators to possess comprehensive linguistic and extralinguistic knowledge. The appropriate interpretation of denotative and significative layers of the text and the capacity to convey the aesthetic and emotional impact of the source text to the reader are essential. Furthermore, the successful representation of pragmatic phenomena such as deixis, presupposition, and implicature determines the communicative effectiveness of the translation and thoroughly examines the issues of forming and expressing the pragmatic content of literary translation, analyzing the theoretical foundations and practical challenges of this process. The research analyzed the reflection

nazariy asoslarini va amaliy qiyinchiliklarini tahlil qiladi. Tadqiqot davomida badiiy matnlarning ingliz tili tarjimasida pragmatik hodisalarning aks ettirilishi tahlil qilindi. Xususan, deysis va presuppozitsiya hodisalari, ularning semantik va pragmatik funksiyalari, tarjimon tomonidan foydalanilgan strategiyalar chuqur o'rganildi.

Xulosalar shuni ko'rsatadiki, badiiy tarjimada pragmatik uyg'unlikka erishish jarayoni tarjimonning nafaqat lingvistik, balki madaniy bilimlarini chuqur o'zlashtirishiga ham bog'liqdir. Tarjima jarayonida pragmatik mazmunni saqlash matndagi yashirin ma'nolarni o'quvchiga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tadqiqot badiiy tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarjima jarayonida pragmatik mazmunni ifodalash bo'yicha yangi yondashuvlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, pragmatik mazmun, deysis, presuppozitsiya, implikatura, madaniy uyg'unlik, signifikativ qatlam, lingvistik omillar, kommunikativ samaradorlik, ekstralingvistik bilim.

KIRISH

Badiiy tarjima shunday jarayonki, unda badiiy janrlardagi asarlarning asliyat matnidagi badiiylikni yuzaga chiqaruvchi barcha detallar va xususiyatlar hisobga olinadi, so'ngra tarjima tiliga o'tkaziladi. Matn mazmuni va situatsion kontekstning o'zaro munosabatida uning kommunikativ vazifasini ifodalaydi. Ushbu munosabatni tarjimon tarjimada aks ettirishi kerak [Aleksyeva, 2004; 137]. Zero, tarjima turli uslubdagi matnlar bilan ishlash amaliyoti hisoblanib, ayniqsa, muallif badiiy asarda tasvirlagan hayajonli holatlarni, his-tuyg'ularni tarjima tilida qayta aks ettirishdek murakkab jarayon sanaladi [Tuxtaxodjayeveva, 2017]. Tarjimon mukammal badiiy tarjima asarni yaratishi va tarjimoni mohirona amalga oshirishi uchun tilning faqatgina fonetik, grammatik, leksik, stilistik jihatlarini puxta egallashi kamlik qiladi. Tarjima jarayonida madaniy va pragmatik sathlarga oid qiyinchiliklarga duch kelmaslik uchun tarjimon matndagi samaradorlik, nutqiy mazmun mohiyati va madaniy xususiyatlarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi shart. Badiiy asar tarjimasi ifodaviylik, kuchli kommunikativ ta'sir, badiiy estetiklikning saqlanishi, qo'shimcha ma'nolar ishtirok etishi, til me'yorlaridan samarali foydalanilganligi, ba'zan nolisoniy me'yorlarga murojaat qilinganligi, ramziylik kabi xususiyatlarni o'zida mujassam qilishi bilan o'zgachalik kasb etadi va boshqa tarjima turlaridan ajralib turadi.

Shuningdek, badiiy tarjima jarayoni asliyat matnidagi badiiy estetik xususiyatlarni, madaniy mazmunni va pragmatik unsurlarni saqlashga asoslanadi. Bu jarayonda tarjimon nafaqat tilning fonetik, grammatik va leksik jihatlarini bilishi, balki madaniy va pragmatik murakkabliklarni ham tushuna olishi muhimdir. Shuning

of pragmatic phenomena in the translation of literary texts into English. Specifically, deixis and presupposition phenomena, their semantic and pragmatic functions, and the strategies employed by translators were meticulously examined.

The conclusions reveal that achieving pragmatic coherence in literary translation is contingent upon the translator's ability to comprehend not only linguistic but also cultural aspects of the source text. Retaining pragmatic content in translation plays a crucial role in conveying implicit meanings to readers. This study contributes significantly to the theory and practice of literary translation, offering novel approaches to address the challenges of conveying pragmatic content effectively.

Key words: literary translation, pragmatic content, deixis, presupposition, implicature, cultural harmony, signified layers, linguistic factors, communicative efficiency, extralinguistic knowledge.

uchun, tarjima jarayoni lingvistik bilim bilan bir qatorda keng qamrovli ekstralingvistik bilimni ham talab etadi.

Turfa millatlar madaniyatidagi xilma-xillikni anglanishida va faqatgina o'sha millatga xos axborot almashinuvida tarjimon muhim rol o'ynaydi. Ya'ni, madaniyatlararo integratsiyalashuv jarayoniga badiiy tarjima katta yordam beradi. Turli millatlar va tillardagi adabiyotlarga tobora qiziqish ortar ekan, badiiy tarjima sohasidagi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar talabi ham kuchaymoqda. Tarjimonlar nafaqat lingvistik va madaniy belgilar tarkib topgan, balki pragmatik belgilarni ham o'zida aks ettirgan matnlar bilan ishlaydi. Aksariyat hollarda tarjima matnlarida pragmatik jihatlariga qaraganda madaniy va lingvistik jihatlariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Badiiy matndagi pragmatik mazmun va xususiyatlarni hisobga olmaslik natijasida tarjima qilinayotgan matnda pragmatik muammolar yuzaga keladi [Sharipova, 2023; 28].

S.Rahimov, Sh.Safarov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, U.Raximov, S.Boymirzayevalar tomonidan pragmalingvistika sohasiga doir qator izlanishlar olib borilgan. Turli matnlardagi pragmalingvistik hodisalar, xususan, deyksis, presuppozitsiya va implikaturalarning ifodalanishi dunyo olimlarini hamisha qiziqitirib kelgan. Ingliz tilshunosligida J.Serl, J.Yul, S.Levinson, J.Layons, Ch.Pirs, N.Norrik, shuningdek, taniqli rus olimlari V.I. Shakhovskiy, V.V. Jura, N.D. Arutyanova, Y.D. Apresyan, O.D. Afanasyeva kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan bo'lsa, mamlakatimiz tilshunos olimlaridan R.H. Davlatova, D.Lutfulloyevalar bir til doirasida, Sh.Shermatov, G.Boltaqulovalar turli tipologik klassifikatsiyaga ega bo'lgan o'zbek va ingliz tillaridagi matnlar pragmalingvistik xususiyatlariga oid kontekstual, qiyosiy-funksional izlanishlar olib borishgan. Shuningdek, Q.Musayev, M.Xolbekov, I.Tuxtasinov, G.Rahimov, U.Yo'ldoshev, R.Shirinova singari olimlar o'z tadqiqotlarida badiiy tarjima matnlarida uchraydigan muammolar va turfa birliklar, ularning lingvokulturologik mazmuni, badiiy tarjimada olam milliy manzarasining qayta yaralish muammolari tahlil qilingan.

Muloqotning samarali kechishida lisoniy (tilning sistemaviy tuzilishini bildiruvchi), qomusiy (voqelik xususidagi) va interaktiv (o'zaro munosabatni anglatuvchi) bilimlarning ahamiyati kattadir. Muloqot ishtirokchilarining bir-birlarini tushunishi muloqot samaradorligining asosiy talabidir. Umuman olganda, badiiy matnning *pragmatik mazmuni* deganda badiiy matnda aks etgan muloqot jarayonida axborot almashinuv vositalarining uyg'unligi nazarda tutiladi. Axborot almashinuvi va muloqot qilish singari vazifalar matn mazmunida uyg'unlashadi. Zotan, pragmatik mazmun tushunchasining umumiy chegaralari lisoniy belgilarning nutq jarayonida funksiyaga kirishuvi, shuningdek, nutq faoliyati jarayonida bildirilgan fikrlarning o'zaro munosabatlari, nutq aktlaridagi kommunikativ vaziyat sifatida belgilanishi mumkin [Ko'chiboyev, 2016].

Madaniy va lingvistik farqliliklar sababli badiiy tarjimada pragmatik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, asliyat matndagi yashirin ma'no va konnotatsiyalarni tarjimada to'g'ri ifodalashga e'tibor qaratilmasa, pragmatik uyg'unlik buzilishi mumkin. Badiiy tarjima jarayonida tarjimonning madaniy bilimlari, o'sha xalqning

urf-odatlarini, hayot tarzi va tarixini chuqur bilishi zarur. Bu bilimlar tarjimonning asliyat matnidagi ma'lumotlarni mohirona tarjima qilishida asosiy omil hisoblanadi. Muloqot samaradorligini ta'minlashda pragmatik uyg'unlikka erishish muhimdir. Tarjimon matnni o'qiyotgan o'quvchida xuddi muallif yaratganidek emotsional va estetik ta'sir uyg'ota olishi kerak.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqotda badiiy tarjima matnlaridagi pragmatik hodisalarni tahlil qilish uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

Lisoniy tabdil usuli – ushbu usul orqali tadqiqotda badiiy matnlarning lingvistik xususiyatlari, jumladan, muallif mahorati va tarjimonning ijodiy yondashuvi tahlil qilindi. Tarjima matnlarida badiylikni saqlash va mazmunni aniq ifodalash uchun qo'llangan vositalar qayta ifodalandi va tahlil qilindi.

Matn variantlarini qiyoslash usuli – tadqiqotda asliyat matni bilan uning turli tarjimalari qiyosiy tahlil qilindi. Bunda tarjimalarda pragmatik hodisalar – deysis, presuppozitsiya va implikatura kabi unsurlar qanday ifodalanishligi va tarjimonlarning bu unsurlarni qay darajada saqlab qolganliklari tekshirildi.

Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli – tadqiqotda pragmatik hodisalarni tahlil qilish uchun matnning muayyan qismlarida qo'llangan deysis, presuppozitsiya va implikatura kabi vositalar indekslashtirildi. Ushbu indeks orqali pragmatik hodisalarning tarjimada qay darajada aks ettirilganligi aniqlandi.

Pragmatik tahlil usuli – matnning pragmatik xususiyatlarini aniqlash uchun propozitsiya, referentsiya, relevantlik, inferentsiya kabi hodisalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu hodisalarning tarjimada saqlanish darajasi va kitobxon ongiga ta'siri o'rganildi.

Diskurs tahlili usuli – badiiy matnlarda pragmatik mazmunni ifodalovchi nutqiy holatlar va kontekstual muloqot vositalari tahlil qilindi. Ushbu usul yordamida matnning kommunikativ mazmuni va madaniy xususiyatlari aniqlandi.

Shuningdek, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni vizual ko'rinishda aks ettirish maqsadida diagramma va jadvallar tuzildi. Bu usul yutuq va kamchiliklarni ko'rsatishda yordam berdi. Ushbu usullar orqali badiiy tarjima matnlaridagi pragmatik xususiyatlar har tomonlama chuqur tahlil qilindi va ilmiy asosda natijalarga erishildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Mazmunij jihatdan matn denotativ va signifikativ qatlamlarga ajraladi. Matnning denotativ xususiyatlari badiiy matnda aks ettirilgan voqea va hodisalarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. S.Boymirzayevaning ta'kidlashicha, matn denotativ tasvirlanayotgan voqelikdir, shuning uchun ham uning mazmuni ko'p jihatdan bayon qilinayotgan voqealar, hodisalar o'rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi [Boymirzayeva, 2010; 12].

Matn mazmunidagi signifikativ qatlam shakllanishida nutqiy tafakkur ahamiyatli hisoblanadi. Nutqiy tafakkur faoliyatining amalga oshishida qator faktorlar, xususan, muloqot maqsadi va muloqot ishtirokchilarining bilim darajasi kabilar muhim rol o'ynaydi. Tarjimadagi pragmatik uyg'unlik o'quvchiga asliyat

matnidagi barcha badiiy-estetik va kommunikativ unsurlarni aniq yetkazish imkonini beradi. Jumladan, badiiy diskursda pragmatik mazmun tarkibi quyidagilarni tashkil qiladi: (1) propozitsiya; (2) referensiya; (3) relevantlik; (4) inferensiya; (5) deysis; (6) presuppozitsiya; (7) implikatura kabilarni ham sanab o'tadi [Makarov, 2003].

Propozitsiya va referensiya matn mazmunining denotativ qismida tarkib topadi. Axborot yetkazish xususiyatini o'zida mujassam etgan *propozitsiya* hodisasi muloqot matnida faollashib kommunikativ belgilarni namoyon qiladi va pragmatik mazmunni hosil qiladi:

A. *Bil'aks siz: hiylakor bir tulki...*

B. *Sizni hiylakor dedim...*

D. *Bas, bu hiylalar, bu makrlar sizdan boshqa kimda topilsin?*

Ushbu nutqiy tuzilmalar "siz", "hiylakor" va "hiyla" kabi o'xshash propozitsiyalarga ega, ammo ushbu propozitsiya muloqot matnida faollashib, har xil pragmatik mazmunni namoyish etadi. Shuningdek, modallik va zamon-aspekt indekatorlari matn mazmunidagi kommunikativ maqsadni yanada aniqlashtiradi.

Referensiya hodisasi ham denotativ semantikaga oid hodisa bo'lib, til birliklarining borliqdagi obyektlar bilan munosabati va bog'liqligini bildiradi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, "lisoniy nomni voqelik bilan bog'lashda so'zlovchining (yoki lisonidan foydalanuvchi shaxsning) maqsadi lisoniy faoliyat niyati muhim o'rin egallaydi" [Safarov, 2008; 119]. Referensiya hodisasiga so'zlovchi yoki yozuvchi nutqidagi bir tomonlama harakat deb emas, unga nutq ishtirokchilari orasida paydo bo'luvchi umummazmuniy harakat sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan:

Asliyat matni: "...bizning boshimizda bo'lg'an "yolg'iz tuyoqliq" savdosi sizning ham boshingizda bordir" [Qodiriy, 2007; 80].

I.Tuxtasinov, O.Mo'minov va A.Hamidov tarjimasi: "...because you have also the only child like we" [Qodiriy, 2017; 78].

M.Riz tarjimasi: "...because the issue of an only child is true in your family as well" [Qodiriy, 2020; 79].

Relevantlik hodisasi esa kommunikativ muloqot matnining kognitiv xususiyatlarini namoyon etadi. Bu hodisa nutqiy harakat mazmunining matndan avval sodir bo'lgan harakatlar mazmuniga mutanosibligini talab etadi. Chunki, adresantga yetkazilayotgan axborot kommunikativ muloqot muhiti va matn mazmuniga mos kelsagina, u oson va yengil tushuniladi.

Asliyat matni: "Boshqa so'zlardan ham ortiqroq esingga shuni solib o'tayki, siyosat to'g'rilarida o'ylanibroq so'zla!" [Qodiriy, 2007; 19].

I.Tuxtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasi: "And I think it faithful to warn you: the affairs of state expound ideas carefully and deliberately!" [Qodiriy, 2017; 18].

M.Riz tarjimasi: "Most importantly, there is one thing I need to remind you of: please be cautious in discussing politics" [Qodiriy, 2020; 20].

Keltirilgan parchadan mavjud siyosiy vaziyatni hisobga olib, Yusufbek hojining o'g'li Otabekdan havotirlanib uni ogohlantiryapti. Maktubdan olingan ushbu parcha

matn avvalida aks etgan aktlar mazmuniga mos ohangda keltirilgan va kommunikativ natijaga olib kelgan.

Tarjima matnlarida relevantlikdagi adekvatlikni ta'minlash maqsadida tarjimonlar transformatsiyaning qo'shish turidan foydalanishgan.

Mantiqiy yoki semantik jihatlar asosida muloqot matnidan olinadigan ehtimoliy yoki anglangan xulosalarga erishish *inferensiya* hodisasi deyiladi. Inferensiya deduktiv va induktiv singari ikki turga ajratiladi [Makarov, 2003].

“*Deyksis*” atamasi yunon tilidan (“*deixis*”) olingan va “ko'rsatish”, “ishora” kabi ma'nolarni bildiradi. U nutqiy akt ishtirokchilari, shu bilan birga, gapning tarkibiy qismlaridan anglashiladigan denotativ mazmunning ahamiyatliligini ko'rsatishga xizmat qiladigan tushuncha bo'lib, u leksik va grammatik vositalarning ishora qilish vazifasini anglatadi.

Deyksis kommunikativ-pragmatik hodisa bo'lib, u nutqning shakllanishi va tinglovchiga axborotni to'g'ri va aniq yetkazilishida muhim ahamiyatga ega. Zero, muloqot davomida ishora qilish, havola qilish kabi vazifani bajaruvchi til birliklari, ya'ni deyktik birliklar bilan nutq samaraliroq bo'ladi. Shu o'rinda, rus olimi B.A. Serebrennikovning deyksis hodisasi xususidagi quyidagi fikrlari o'rinlidir: “Deyksis inson nutqiy faoliyatining o'ziga xos jihatidir. Jonsiz jismlar dunyosida hech qanday deyktik vositalar uchramaydi va bunga ehtiyoj ham yo'q. Bir predmetning boshqa predmetlardan ajratib ko'rsatilishi, unga nisbatan ishora qilinishi bilan predmet o'z xususiyatini o'zgartirmaydi. Deyksis inson uchun nutq mo'ljali olish uchun kerak. Deyktik birliklar umuman ishtirok etmagan nutq tinglovchi uchun tushunarsiz bo'lib qoladi” [Serebrennikov, 1988; 146].

Ko'rinib turibdiki, kommunikativ faoliyat va deyksis o'zaro chambarchas bog'liqdir. U lisoniy birliklarning ishoraviylik xususiyatini namoyon qiladi. Deyksis tilning belgilar tizimi sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi, chunki u lingvistik va ekstralingvistik vositalar orqali ishoraviylik vazifasini bajaradi. Ammo deyktik birliklar qo'llangan o'rinda uning ishora obyektiga aniqlik kirituvchi nutqiy vaziyat, kontekst, nutq ishtirokchilarining umumiy bilish fondi bo'lmasa, nutqdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi [Davlatova, 2020]. Deyktik birliklar nutqiy faoliyat aspektlarida, ekstralingvistik kontekst xossalari va muloqot faoliyati xususiyatlarida aniq manbaaning bilvosita ishtirokisiz ifodalana olmaydi.

Aslyiat matni: “*Fuqaroning tag'in qandog' ko'rguliklari bor ekan, o'g'lim!*” [Qodiriy, 2007; 18].

I.Tuxtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasi: “*What kinds of shocks await our people, my son!*” [Qodiriy, 2017; 18].

M.Riz tarjimasi: “*What is the fate of the nation, my son?*” [Qodiriy, 2020; 19].

Til egasining (Yusufbek hojining) emotsional holati uning nutqidagi “*tag'in qandog'*” birikmasidan anglashilgan ishora orqali ifoda etilyapti. Ushbu miqdor-daraja ravishiga yuklangan deyktik vazifa shundan iboratki, Yusufbek hojining xalq uchun achinayotganligi, oddiy xalqning boshiga tushgan ko'rguliklarining nihoyasi yo'qligiga afsuslanayotganligidir. Tarjimonlar tomonidan berilgan “*what kinds of*”, “*what*” tarjimalari emotsionallik holatini to'liq va aniq tasvirlay olgan.

“*Presuppozitsiya*” – lot. sub – “tagi, osti” va ponere – “joylamoq, joylashtirmoq” soʻzlari umumlashmasidan hosil boʻlib, oʻzak yoki asosga joylashtirmoq maʼnolarini bildiradi [Raximov, 2005]. Ushbu hodisa “gapda ifodalangan hukmning tabiiy asosi” (G.Frege) [Lotter, n.d.], “bilishning umumiy xazinasi” [Arutyunova, 1990], “oldindan bilishning jami” [Paducheva, 1996] kabi ifodalanib, u gapda sintaktik uzvlari orqali nutqiy vaziyat, soʻzlovchi va tinglovchi orasidagi shartnomaviy munosabat (soʻzlovchi va tinglovchining yoshi, kasbi, millati, yashash tarzi, umumiy bilish xazinasi), til koʻnikmasi yordamida anglashiladigan qoʻshimcha yoki yashirin mazmun hisoblanadi [Raximov, 2005]. Presuppozitsiya gap boʻlaklar orqali ifodalangan gap hukmidan kelib chiqadigan qoʻshimcha-botiniy maʼnodir. Binobarin, presuppozitsiya sintaktik strukturada moddiy qobigʻiga ega boʻlmaydi, biroq, albatta, tashqi signal indikatoriga ega boʻladi [Pardayev, 2013; 113].

“Presuppozitsiya asosan gapda muayyan til birliklarining ishorasi vositasida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. Soʻzlovchi obyektiv voqelik haqidagi muayyan axborotni gapda ochiq ifoda etishni xohlamaganda, presuppozitsiyaga yoʻl ochiladi”, – deydi Z.Burxanov. Shuningdek, olim “presuppozitsiya gapda sintaktik qurilmalar vositasida namoyon boʻladi. Bu kabi sintaktik birikmalar toʻgʻridan toʻgʻri propozitsiyani ham aks ettiradi. Presuppozitsiya orqali anglashiluvchi axborot esa sintaktik qurilmadan anglashilib tursa-da, uning tashqi strukturasi toʻliq mos kelmaydi. Bu holat presuppozitsiyaning yashirin ifodalanishi xususida fikr yuritishga asos boʻladi”, – deb hisoblaydi [Burxanov, 2008; 13].

Asliyat matni: “*Shuning ilasizni-da, oʻzimni-da Homid qoʻlida oʻyin boʻlmogʻimizga katta yoʻl ochqan edim*” [Qodiriy, 2007; 153].

I.Tuxtasinov, O.Moʻminov, A.Hamidov tarjimasi: “*I have contributed to the fact myself that we both have been victims of Hamid*” [Qodiriy, 2017; 151].

M.Riz tarjimasi: “*Making this mistake put both of us in Hamid’s clutches*” [Qodiriy, 2020; 152].

Presuppozitsiyasi bevosita ifodalanmagan boʻlsa-da, “*katta yoʻl ochqan edim*” sintaktik qurilmasiga yuklangan mazmun, presuppozitsiyani mantiqan kashf etadi. Tarjimonlar tomonidan asliyat matnidagi “yoʻl ochmoq” feʼli “to contribute” va “make...to” muqobillari vositasida ifoda etilgan. Tarjima matnlarining har ikkisi ham xuddi asliyat matnidan anglashilgandek, *Ikkisi ham Homidning qoʻlida oʻyinchoq boʻldilar va bunga Otabek sababchi boʻldi* axboroti aks etgan.

G.P. Grays *implikaturaga* birinchilardan boʻlib matn pragmatikasiga bogʻliq hodisa sifatida qaragan. Uning taʼkidlashicha, matnda hosil boʻladigan yashirin maʼno aslida implikatura hodisasiga qaram boʻladi [Grice, 1975]. Chunki, muloqot paytida til birliklarining qoʻllanilishi muayyan qoida va tamoyillarga asoslanadi, baʼzan muloqot taqozosidan yoki soʻzlovchi ataylab bu qoidalarga amal qilmasligi mumkin. Muloqot jarayonidagi mana shunday “qoidalarga amal qilmaslik” natijasida bunday maqsadli “qoida buzilishi” natijasida presuppozitsiya va semantik xulosaga mos kelmaydigan mohiyat hosil boʻladi. Masalan:

Asliyat matni: “*Uning bu holi ersa manim uchun yaxshi emas, ul yana koʻb vaqt bizning oramizda tikan boʻlmoqchi...*” [Qodiriy, 2007; 153].

I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidov tarjimasi: “*But I don’t like her present state; it seems she is going to stand in our light for long ...*” [Qodiriy, 2017; 151].

M.Riz tarjimasi: “*Her new manner bodes ill for me. She is going to stand between us for some time*” [Qodiriy, 2020; 152].

Mazkur matnda Zaynabning tikanga qiyoslanishi orqali implikatura yuzaga kelgan. Ushbu holatda tarjimonlar asliyat matnidagi *tikan bo‘lmoqchi* metaforik birikmasi orqali ifodalangan badiiyat va pragmatik salohiyatni “*stand in-stand between*” tarzida o‘girib ma’lum miqdorda saqlab qolishgan.

Yuqorida keltirilgan misolda muloqot implikaturasining unda ifodalangan implisit ma’no tufayli presuppozitsiya hodisasiga o‘xshash jihatlari borligi ko‘rinib turibdi. Shakl va mazmun tushunchasi, aslida, bir-biriga zid bo‘lmagan va biri boshqasini taqozo etadigan estetik kategoriyalardir [Yo‘ldosh & Yo‘ldosh, 2016; 30]. Lekin bu ikki hodisalarning o‘zaro farqlari mavjud. Implikatura matnda tasodifiy holatda paydo bo‘ladigan, doimiy bo‘lmagan, tez-tez o‘zgarib turuvchi va ba‘zan yo‘qolish ehtimoli bo‘lgan mazmun, ma’no elementidir. Aksincha, presuppozitsiya matnda doimiy mavjud, yo‘qolmaydigan mazmuniy hodisadir. Ular o‘rtasidagi yana bir farq shundaki, presuppozitsiya asosan lisoniy shakl bilan bog‘liqdir, implikatura butunlay ma’no doirasiga kiradi va lisoniy shaklning o‘zgarishi unga qariyb ta’sir o‘tkazmaydi.

Tarjimon badiiy matni tarjima qilayotgan paytda yuz kelishi mumkin bo‘lgan shunday muammo borki, u ham bo‘lsa tarjimon qachon matndagi implisit ma’noga qo‘shimcha axborot yuklashni bilishi kerak. Har qanday yozuvchi o‘z tajribasi va o‘zi ulg‘aygan madaniyatidan kelib chiqib asarda implisit mazmunni yaratadi. Ammo ushbu asarni o‘qiyotgan o‘zga madaniyat vakillari uchun bu yashirin ma’noni anglash bilimi, toki tarjimon implisit ifodani eksplisit tarzda aniq va tushunarli qilib o‘girmas ekan, yetishmasligi mumkin.

Tarjimon implisit mazmunni to‘g‘ri tushunish uchun ma’no turi va implisit ma’noni tarjima qilish usullaridan xabardor bo‘lishi kerak. L.M. Larson ta’kidlaganidek, implisit ma’no hech qanday shaklga ega bo‘lmagan, muloqot maqsadining asosiy qismidir. Shuningdek, u tarjimadagi implisit ma’noni uch guruhga ajratadi: (1) ishora implisiti (implicit referential); (2) tuzilish implisiti (implicit organizational); (3) vaziyat implisiti (implicit situational) [Larson, 1998].

Ishora implisiti – shaxs to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qiluvchi joy, vaqt, narsa, holat kabilarga nisbatan ishora. Tuzilish implisiti esa keltirilgan matnda tabiiy asosi mavjud bo‘lgan ishora turi hisoblanadi, ya’ni presuppozitsiya hodisasining mazmuni aynan tuzilish implisit turiga mansub. Vaziyat implisiti nutq vaziyatidan anglashiladigan ma’no bo‘lib, u asosan, tagma’no uzvlarini o‘zida namoyon etadi va implikatura hodisasiga oid mazmunni tashkil etadi.

Implisit ma’no – bu matn ostidagi matn yoki mazmun bo‘lib, u o‘z turlariga ko‘ra presuppozitsiya yoki implikatura mazmun mundarijasida aks etishi mumkin. L.Horn va G.Vordlarning ta’kidlashicha, so‘zlovchi nutqida ishtirok etmagan yoki aks etmagan mazmun – implikatura deb ataladi [Horn & Ward, 2006]. Shunday qilib, muloqot matnida lisoniy implisit mazmunni shakllantirishda implikatura va

presuppozitsiya kabi kategoriyalar ishtirok etadilar. Shubhasiz, bu kategoriyalarning matn mazmuniy mundarijasida tutgan o'rni har xil bo'lib, lekin ularning hammasi bir xilda muloqotning samarali kechishini ta'minlash vazifasini bajaradi.

Badiiy tarjimadagi pragmatik talab ikki tildagi uslubiy birliklarning ekvivalentini mohirona tanlash orqali qondiriladi. Zero, "tarjima, avvalo, mazmun undan keyin uslub jihatidan asliyat tilidagi axborotning tarjima tilidagi eng yaqin tabiiy ekvivalentini qayta yaratishdan iborat jarayondir", deb ta'kidlaydi E.Nayda va S.Taber [Nida & Taber, 1969; 23].

Badiiy tarjimaning pragmatik xususiyatlari badiiy tarjima matnlarida pragmalingsvistikaning quyidagi xususiy masalalarini hal qilinishi lozim bo'ladi:

- asliyat matnida aks etgan nutq subyektlarining kommunikativ niyati va uning yashirin yoki oshkora shakllari tarjima matnida qayta ifodalanishi kerak. Chunki, nutqning yashirin yoki oshkora ifoda shakllari o'z-o'zidan kommunikativ strategiya shakllanishida muhim rol o'ynaydi;

pragmalingsvistikaning asosiy masalalaridan biri bo'lmish kommunikativ maqsadni ifodalash strategiyasi nutq egasining ichki maqsadini turli yo'llar bilan bayon qilish usulidir. Badiiy tarjimada ushbu strategiyani aniq ko'rsata olish tarjima matnlaridagi pragmatik mazmunni ifodalash uchun qo'yilgan katta qadam bo'ladi;

- pragmalingsvistikaga oid xususiy masalalardan yana biri – tagma'no tushunchasi hisoblanadi. Badiiy tarjimada mazkur tushunchaning implikatura yoxud presuppozitsiya hodisalaridan farqli, o'z xususiyatlariga ko'ra qayta ifodalash tarjimada pragmatik mahoratni aks ettirishning dolzarb masalalaridan biridir;

- nutq subyektlarining obyektiv olamni his qilishi, u haqidagi bilimlari ma'lumotni yetkazish va qabul qilishda ahamiyatli hisoblanadi;

- kontekstda namoyon bo'lgan pragmatik hodisa va vaziyatlar, nutq ishtirokchilarining ataylab muloqot qoidalarini chetlab o'tishi, shuningdek, perlokutiv aktning tinglovchiga ta'sir o'tkazishi kabi unsurlarning tarjima matniga o'tkazilishi;

- dialog, suhbat, bahs, munozara kabi muloqotdagi nutqiy aralashuv shakllari, ulardagi ijtimoiy-etiket vositalari, kommunikantlarning bir-biriga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi nutqiy akt ko'rinishlarini asliyatga monand tarjima tiliga o'tkazilishi;

- muloqot jarayoni bilan bog'liq holda deyshtik vositalarni badiiy tarjimada aks ettirish kabilar badiiy tarjima matnlarida ifodalanishi lozim bo'lgan masalalar hisoblanadi.

Pragmatikaning tarjimaga bog'liqligi to'laqonli va mukammal tarjima yaratishga harakat qilishda o'z aksini topadi. Ba'zan ikki tildagi ekstralingvistik vositalarga yuklangan axborot bir-biriga zid kelishi mumkin, chunki tarjima ko'rinishidagi asarni mutolaa qilayotgan kitobxon va asliyat tilidagi so'zlashuvchilarning "bilim jihatidan kelib chiqishi" (*background knowledge*)ning o'zaro farqlanishi tabiiy holat bo'lishi mumkin. Natijada esa asliyat tilida so'zlashuvchi kishilarga tushunarli bo'lgan tushuncha tarjima tilida so'zlashuvchi kishilarga tushunarsizroq yoki aksincha umuman tushunarsiz bo'lishi mumkin [Bozorov, 2020].

Tarjima asarning badiiy kuchi, qiymati, uning kitobxonga ta'siri, o'ziga katta

sonli kitobxonlarni jalb qila olishi bilan pragmatik salohiyatning naqadar mahorat bilan aks ettirilganligi baholanadi. Tarjima jarayonida badiiy tarjima matnini o'qiyotgan o'quvchi undagi badiiy-estetik zavqni asliyat tilidagidek his qilishi lozim. Bu kabi badiiy matn tarjimasiga oid pragmatik vazifa badiiy tarjima tilida o'quvchida xuddi muallif tasvirlaganidek badiiy-estetik ta'sir uyg'ota olishdan iboratdir. Tarjimadagi konnotatsiya muammolarining hal qilinishi tarjimada pragmatik aspektlarga e'tibor qaratishni taqozo qiladi [Snell-Hornby, 1988; 206].

Umuman olganda, tarjimada pragmatik salohiyatning aks ettirilishi eng muhim jihatlardan biridir. Eng avvalo, tarjimon kerakli o'rinlarda tegishli leksik-sintaktik birliklarni qo'llay olishi lozim. Tarjima jarayoni boshlanar ekan, tarjimon asliyat matnining dastlabki retseptori (qabul qiluvchi) vazifasini bajaradi. Albatta, tarjimon asarning o'zga tildagi taqdiri va muvaffaqiyati unga bog'liq ekanligini his qilishi va matnda tasvirlangan ma'lumotlarni batafsil anglashga harakat qilishi kerak. Avvalo, asliyat tiliga tegishli bo'lgan madaniyat, hayot tarzi, urf-odatlar va o'sha xalqning tarixi tarjimon tomonidan iloji boricha to'liqroq o'rganilishi kerak [Newmark, 1991; 184].

Tarjima jarayoni asarning asliyat matnidagi axborotlarni mohirona tarzda kitobxonga yetkazish demakdir. Kitobxon asarni mutolaa qilar ekan, u matndagi axborotni qabul qiladi va tabiiyki, uning ongida qabul qilgan axborotiga nisbatan ma'lum bir munosabat paydo bo'ladi. Bunday ko'rinishdagi hosilot pragmatik munosabat deb yuritiladi. Ta'kidlash joizki, bu kabi munosabatlar har xil yo'sinda kechishi mumkin, xususan, asarda aks etgan ba'zi axborotlar kitobxonga qiziq tuyulmasligi, aksincha, ba'zan unga emotsional jihatdan kuchli ta'sir etishi mumkin. Matnning kommunikativ aspekti va salohiyati deganda mana shunday ta'sir nazarda tutiladi [Bassnett, 2013].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, tarjimada pragmatik uyg'unlikka erishish uchun tarjimondan asliyat matnida ifodalangan har bir holat va narsani yaxshi bilishni, ya'ni chuqur ekstralingvistik bilimga ega bo'lish talab qilinadi. Zero, ekstralingvistik faktorlarni hisobga olish asliymonand tarjimaga erishish garovidir. Asliyatning kommunikativ teng qiymatliligini ro'yobga chiqarish nafaqat narsa va hodisalar to'g'risida axborot beruvchi nutq vositalarining moddiy-mantiqiy ma'nolarini hamda ularning hissiy-ta'sirchan va obrazli-uslubiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan majoziy vazifalarini to'g'ri talqin qilishni, balki fikrning til ifodasi bilan muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatini belgilaydigan pragmatik aspektini ham nazarda tutishni talab qiladi.

Bugungi kunda o'zbek zamonaviy tilshunosligi nazariy o'rganilish va bilish davriga yetib keldi va ushbu bosqichda har bir til hodisasi boshqasi bilan o'zaro bog'liqlikda va sistemaviy munosabatdorlikda tadqiq etilishiga zarurat tug'ilmoqda. Xususan, nutq va nutqiy muloqot jarayonida tildagi hodisalarni o'zaro aloqadorlikda tahlil etish, ularni nutqda namoyon bo'lish tartibida modellashtirish yoki qolipga solish ancha kuchaydi [Nurmonov, 1988]. Natijada lisoniy birliklar va ularning o'rtasidagi munosabatlar tadqiq etilib, o'zlarining xolis baholarini olmoqda. Biroq ayni hodisaning turfa ifodalar orqali nomlanishi yoki bir nechta hodisalarga taalluqli mohiyat, xossa va

xususiyatlarni umumlashtirish holatlari ham yangi davr tilshunosligida kuzatilyapti.

Badiiy diskursda namoyon bo'ladigan pragmatik hodisalar tahlilida asos bo'lib xizmat qiluvchi badiiy matnlarining tahlil tamoyillari va usullariga to'xtalib o'tamiz. Shuningdek, tadqiqot ishimizda tahlilga tortiladigan *deyxisis*, *presuppozitsiya* va *implikatura* hodisalarining tahlil mundarijasini keltiramiz.

Badiiy matn va uning lisoniy tahlili dialektik tafakkur qonuniyatlari asosida shakllanadi. Dialektik tafakkur deganda narsa va hodisalarning bir-biri bilan aloqadorligi, mohiyati va rivojlanishini lisoniy kategoriyalar tizimi va qonuniyatlari yordamida asoslaydi. Badiiy matnni pragmatik tahlil qilish jarayonida M.Yo'ldoshev taklif etgan quyidagi tamoyillarga tayanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi: (1) shakl va mazmun birligi; (2) makon va zamon birligi; (3) badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash; (4) badiiy matndagi poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash; (5) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash tamoyili [Yo'ldoshev, 2017; 17].

Ushbu tahlil tamoyillaridan shakl va mazmun birligi, makon va zamon birligi va badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarini aniqlash kabilari deyxisis hodisasi tahlili uchun aynan mutanosib deya olamiz. Zero, shakl va mazmun borliqdagi jamiki narsa va hodisaning aloqadorligi va bog'lanishni ifoda etadi. Shakl va mazmun o'zaro muvofiq kelgandagina so'zlovchining niyati to'liq namoyon bo'ladi. Ushbu ikki unurning ochiq yoki yashirin mutanosibligi deyxisis mazmunidagi ishora xususiyatlarining aniq va to'la sharhlanishida muhimdir. Shuningdek, badiiy matndagi xususiyatlar ko'zdan kechirilayotganda matndagi har bir hodisaga makon va zamon tushunchalarini hisobga olgan holda yondashish kerak. Chunki, har qanday muloqot davr va o'rin-joy aloqadorlikda yuzaga keladi. Xususan, zamon va makon deyxisislari tahlili aynan mana shu tamoyilga asoslanadi. Badiiy matn tilining umumxalq tili va adabiy tilga munosabatini aniqlash tamoyili vositasida "O'tkan kunlar" romanidagi asar tili va unga nisbatan tarjimonlarning munosabati yoritiladi. To'rtinchi tamoyilda esa badiiy mazmun ifodalanishi va shakllanish mexanizmlari asoslanadi. Beshinchi tamoyil orqali asarda qo'llanilgan boshqa matn ko'rinishlarini (naql, maqol, rivoyat yoki asardan parchalar) topish hamda bu matnlarning badiiy asar va uning mazmuni bilan uyg'unlik darajasi, muloqot mazmunidagi o'rni aniqlanadi.

M.Yo'ldoshev, Z.Isaqov va Sh.Haydarov badiiy matnni tahlil qilishning quyidagi to'rtta usulini taqdim etgan. Garchi ushbu usullar asliyat tilidagi badiiy asarlar tahlili uchun taqdim etilgan bo'lsa-da, bizningcha, ushbu usullarini badiiy tarjima matnlari tahlilida ham qo'llasak, aniq va muvaffaqiyatli natijalarga erishish mumkin:

1. *Lisoniy tabdil usuli*. Aslida, mazkur tahlil usuli orqali tahlil qilinayotgan matn tilidagi badiiylik, yozuvchining mahorati kabi xususiyatlar e'tiborga olinadi. Ammo tadqiqot obyekti badiiy tarjima matni bo'lganligi sababli, bunda tarjima matnlaridagi ishonarlilik, badiiylik va tarjimon tomonidan foydalanilgan so'z va iboralarni qayta ifodalash, yaqin ma'noli so'zlar bilan almashtirib ko'rish asnosida tarjima natijalarini izohlanadi.

2. *Matn variantlarini qiyoslash usuli*. Ushbu usul vositasida asarning tarjima variantlarida ifodalangan pragmatik hodisalar asliyat matniga ko'ra bir-biri bilan

qiyoslanadi. Bir tarjima variantining boshqa tarjimon tomonidan o'zgacha berilishi, ya'ni bir xil mazmunni turli vositalar orqali ifodalanishi tahlilga tortiladi.

3. *Lug'atlarga asoslanish usuli*. Ma'lumki, "O'tkan kunlar" romani tarixiy mavzudagi asarlar sirasiga kiradi. Bu kabi asarlarning tarjimalaridagi til xususiyatlari tahlil qilinayotganda tegishli lug'atlarga ehtiyoj seziladi. Chunki, asardagi ko'plab notanish so'zlarga deyarli har bir sahifada izoh berilgan va yana ko'plab so'z va iboralar mazmuni bugungi yoshlar va tarjimonlar uchun notanish bo'lib qolmoqda. Badiiy tarjima matnlarining pragmatik tahlilini lug'atlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

4. *Lisoniy birliklar indeksini tuzish usuli*. Buning uchun asar tarjimalaridagi pragmatik hodisalar indeksi tuzib chiqiladi. Bu tarjimonning pragmatik salohiyatini aniqlashda faktik material vazifasini bajaradi.

Badiiy matnda qo'llangan pragmatik vositalarni tarjima qilish jarayonida, avvalo, tarjimon ushbu vositalarning asiyat va tarjima tillaridagi mazmun-mohiyatini, ulardagi pragmatik vositalarni o'xshash va farqli tomonlarini hisobga olishi lozim. Badiiy matnda qo'llangan pragmatik vositalarni tarjima qilishning o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Bunga bir necha omillar sababchi bo'lishi mumkin. Jumladan, deysis va deytik iboralarida ifodalangan ishoralarni tarjimada to'liq aks ettirishning ham ma'lum bir qiyinchiliklari bor:

Deysis va presuppozitsiya hodisalari tahlili uchun tanlangan muayyan badiiy matnlarning asiyat matnidagi har bir deysis va presuppozitsiya aks etgan qismlar ajratib olinib turlarga saralanadi; asiyat matnidagi muallif nazarda tutgan ishora hamda implisit mazmunli birliklarning tarjima matnlarida ifodalanishi tahlil qilinadi; pragmatik mazmunni tarjima matniga o'tkazishdagi yutuq va kamchiliklar diagramma ko'rinishida raqamlarda ko'rsatiladi.

Nutqiy implikaturaning aniq va to'g'ri tarjima qilinganligini tahlil etishda "Grays implikaturasi" nazariyalari asos bo'ladi. "Grays implikaturasi" nazariyasi asosida pragmatik jihatlarni sharhlash orqali tarjimaning so'zlashuv ifodaviyligiga ta'sirini tushunishimiz mumkin. Ushbu nazariya implikatura tahliliga tegishli bo'lgan qoidalar bilan bir qatorda, tegishli tahliliy standartlarni ham me'yorlashtiradi. Bizningcha, u matn tarjimasining aniqliligini o'lchash va baholash uchun munosib mezon sifatida xizmat qiladi. Ma'lumotlarni tizimli, mantiqiy va ketma-ket tahlil qilish uchun avval yozishmalar bir butun sifatida o'qiladi va tekshiriladi, so'ngra tahlil qilish uchun implikaturalarni misol sifatida ajratiladi.

XULOSA

Matnning pragmatik mazmuni shakllanishida signifikativ, denotativ qatlamlar, shuningdek, propozitsiya, relevantlik, referensiya, inferensiya, deysis, presuppozitsiya va implikatura kabi hodisalarning ahamiyati turlicha, ammo ularning barchasi nutqiy muloqotning samaradorligini ta'minlaydi. Tarjimada pragmatik uyg'unlikka erishish uchun tarjimon asiyat matnida ifodalangan har bir holat va narsani yaxshi bilishni, ya'ni chuqur ekstralingvistik bilimga ega bo'lish talab qilinadi, zero, ekstralingvistik faktorlarni hisobga olish asliymonand tarjimaga erishish garovidir.

Matnning pragmatik mazmuni denotativ, signifikativ qatlamlar va pragmatik

unsurlardan tashkil topadi. Bu unsurlar qatoriga propozitsiya, referensiya, relevantlik, inferensiya, deysis, presuppozitsiya va implikatura kiradi. Ushbu elementlarning har biri matndagi muloqot jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Deyksis hodisasi matndagi ishora va nutqiy kontekstni tushunishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, muloqot jarayonida deyksis vositalarining to'g'ri qo'llanilishi nutq samaradorligini oshiradi. Presuppozitsiya esa nutqdagi yashirin ma'nolarni tushunishga yordam beradi va o'quvchining madaniy bilimlari bilan uyg'unlikda idrok qilinadi. Implikatura matndagi yashirin ma'nolarni hosil qiluvchi muhim pragmatik hodisa sifatida qaraladi. Tarjimonlar ushbu yashirin ma'nolarni aniqlab, eksplisit tarzda ifodalashi kerak, chunki ular turli madaniy fonlarga ega o'quvchilar tomonidan to'g'ri tushunilmasligi mumkin. Badiiy tarjimada pragmatik salohiyatni muvaffaqiyatli aks ettirish uchun bir qancha tamoyillarga rioya qilinishi lozim, bular: (a) shakl va mazmun birligini ta'minlash; (b) makon va zamon birligini hisobga olish; (d) umumxalq va adabiy til o'rtasidagi munosabatni tahlil qilish; (e) poetik va stilistik vositalarning aktualligini aniqlash; (f) intertekstuallik mexanizmlarini yoritish. Demak, badiiy tarjima asarning kitobxonga kuchli ta'sir qilishi, uning badiiy-estetik qiymati, keng qamrovli kitobxonlar auditoriyasini o'ziga jalb qila olishi, tarjima matnidagi axborot asliyatdagi asarda tasvirlangandek yengil va tushunarli yetkazilishi bilan tarjimadagi pragmatik salohiyat va uning muvaffaqiyati belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alekseyeva, I.S. (2004). *Vvedeniye v perevodovedeniye*. Moskva: Akademiya.
2. Arutyunova, N.D., & Zhurinskaya, M.A. (Redy.). (1990). *Teoriya metafor*. Moskva: Progress.
3. Bassnett, S. (2013). *Translation studies* (4th ed.). London: Routledge.
4. Boymirzayeva, S.O'. (2010). O'zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar. *Filol. fan. dok. diss. avtoref*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti.
5. Bozorov, Z.M. (2020). Badiiy tarjimada leksik-stilistik bo'yqordorlikni saqlash muammolari (A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanining inglizcha tarjimalari misolida). *Filol. fan. fals. dok. diss.* Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti.
6. Burxanov, Z. (2008). O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi (presuppozitsion aspekt). *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti.
7. Davlatova, R.H. (2020). O'zbek tilining deysitik birliklari. *Filol. fan. dok. diss. avtoref*. Toshkent: O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.
8. Grice, H.P. (1975). Logic and conversation. In P.Cole & J.Morgan (Eds.), *Syntax and semantics* (pp. 41–58). New York: Academic Press.
9. Horn, L.R., & Ward, G. (2006). *The handbook of pragmatics*. New York: Wiley.
10. Komissarov, V.N. (1980). *Lingvisticheskiy perevod*. Moskva: Mezhdunarodnyye otnosheniya.
11. Ko'chiboyev, A. (2016). *Matn pragmatikasi*. Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti.
12. Larson, L.M. (1998). *Meaning-based translation: A guide to cross-language equivalence*. Lanham, Maryland: University Press of America.
13. Lotter, D. (n.d.). Gottlob Frege: Language. In *Internet Encyclopedia of Philosophy*. <https://iep.utm.edu/freg-1an/>.
14. Makarov, M.L. (2003). *Osnovy teorii diskursa*. Moskva: Gnozis.

15. Newmark, P. (1991). *About translation: Multilingual matters*. Bristol, UK: Multilingual Matters.
16. Nida, E.A., & Taber, C.R. (1969). *The theory and practice of translation*. Leiden: Brill.
17. Nurmonov, A. (1988). *Gap haqidagi sintaktik nazariyalar*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
18. Paducheva, Y.V. (1996). *Semanticheskiye issledovaniya: semantika vremeni i vida v russkom yazyke, semantika narrative*. Moskva: Shkola «Yazyki russkoy kul'tury».
19. Pardayev, A. (2013). *O'zbek tili yordamchi so'z turkumlarining lisoniy tizimdagi o'rni va lingvopragmatik tahlili*. Toshkent: "Fan" nashriyoti.
20. Qodiriy, A. (2007). *O'tkan kunlar*. Toshkent: "Navro'z" nashriyoti.
21. Qodiriy, A. (2017). *The days gone by* (I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov (Transl.)). Tashkent: Mashhur-Press.
22. Qodiriy, A. (2020). *Bygone days* (M.E. Reese (Trans.)). Nashville, TN: Muloqot Cultural Engagement Program.
23. Rahimov, U. (2005). Tag ma'no va presuppozitsiya. *O'zbek tili va adabiyoti*, 5, 31–38.
24. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti.
25. Serebrennikov, B.A. (1988). *Rol' chelovecheskogo faktora v yazyke: yazyk i myshleniye*. Moskva: Nauka.
26. Snell-Hornby, M. (1988). *Translation studies: An integrated approach*. Amsterdam: John Benjamins Publishing.
27. Tuxtaxodjayeva, N.A. (2017). Badiiy tarjimada lingvokulturemalarning ifodalanishi (ingliz va o'zbek tillari misolida). *Filol. fan. fals. dok. diss. avtoref.* Toshkent: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.
28. Yo'ldoshev, U. (2017). Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o'zbek xalq latifalari misolida). *Filol. fan. fals. dok. diss. avtoref.* Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti.
29. Yo'ldosh, Q., & Yo'ldosh, M. (2016). *Badiiy tahlil asoslari*. Toshkent: "Kamalak" nashriyot uyi.
30. Sharipova, F. (2023). Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi xatlar (yozishmalar) tarjimasining pragmatik tahlili. *Filol. fan. fals. dok. diss.* Termiz: Termiz davlat universiteti.

REFERENCES

1. Alekseyeva, I.S. (2004). *Introduction to translation studies*. Moscow: Academia.
2. Arutyunova, N.D., & Zhurinskaya, M.A. (Eds.). (1990). *Theory of metaphor*. Moscow: Progress.
3. Bassnett, S. (2013). *Translation studies* (4th ed.). London: Routledge.
4. Boymirzayeva, S.O. (2010). Categories forming the communicative-pragmatic content of text in the Uzbek language. *Abs. doc. diss. philol. scien.* Tashkent: Institute of Language and Literature of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.
5. Bozorov, Z.M. (2020). Problems of preserving lexical-stylistic coloring in literary translation (based on English translations of A.Qodiriy's novel "Days Gone By"). *PhD thes. philol. scien.* Samarkand: Samarkand State Institute of Foreign Languages.
6. Burkhanov, Z. (2008). Pragmatics of postpositions and their functional case alternatives in the Uzbek language (presuppositional aspect). *Cand. diss. philol. scien.* Tashkent: Institute of Language and Literature of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.
7. Davlatova, R.H. (2020). Deictic units of the Uzbek language. *Abs. DSc thes. philol.* Tashkent: Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore.
8. Grice, H.P. (1975). Logic and conversation. In P.Cole & J.Morgan (Eds.), *Syntax and semantics* (pp. 41–58). New York: Academic Press.
9. Horn, L.R., & Ward, G. (2006). *The handbook of pragmatics*. New York: Wiley.
10. Kochiboyev, A. (2016). *Text pragmatics*. Samarkand: Samarkand State Institute of Foreign Languages.

11. Komissarov, V.N. (1980). *Linguistic translation*. Moscow: International Relations.
12. Larson, L.M. (1998). *Meaning-based translation: A guide to cross-language equivalence*. Lanham, Maryland: University Press of America.
13. Lotter, D. (n.d.). Gottlob Frege: Language. In *Internet Encyclopedia of Philosophy*. <https://iep.utm.edu/freg-1an/>.
14. Makarov, M.L. (2003). *Foundations of discourse theory*. Moscow: Gnosis.
15. Newmark, P. (1991). *About translation: Multilingual matters*. Bristol, UK: Multilingual Matters.
16. Nida, E.A., & Taber, C.R. (1969). *The theory and practice of translation*. Leiden: Brill.
17. Nurmonov, A. (1988). *Syntactic theories about the sentence*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
18. Paducheva, Y.V. (1996). *Semantic studies: Semantics of tense and aspect in the Russian language, semantics of narrative*. Moscow: School of 'Languages of Russian Culture'.
19. Pardayev, A. (2013). *The place of auxiliary word classes in the linguistic system of the Uzbek language and their linguopragmatic analysis*. Tashkent: Publishing House of 'Science'.
20. Qodiriy, A. (2007). *Days gone by*. Tashkent: Publishing House of 'Navruz'.
21. Qodiriy, A. (2017). *The days gone by* (I.M. Tukhtasinov, O.M. Muminov, A.A. Khamidov (Transl.)). Tashkent: Mashhur-Press.
22. Qodiriy, A. (2020). *Bygone days* (M.E. Reese (Trans.)). Nashville, TN: Muloqot Cultural Engagement Program.
23. Rahimov, U. (2005). Implication and presupposition. *Uzbek Language and Literature*, 5, 31–38.
24. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalinguistics*. Tashkent: State Scientific Publishing House of 'National Encyclopedia of Uzbekistan'.
25. Serebrennikov, B.A. (1988). *The role of the human factor in language: Language and thinking*. Moscow: Science.
26. Sharipova, F. (2023). Pragmatic analysis of the translation of letters (correspondence) in Abdulla Qodiriy's novel "Days gone by". *PhD thes. philol. scien.* Termez: Termez State University.
27. Snell-Hornby, M. (1988). *Translation studies: An integrated approach*. Amsterdam: John Benjamins Publishing.
28. Tukhtakhodjayeva, N.A. (2017). Expression of linguoculturemes in literary translation (based on examples from English and Uzbek languages). *Abs. PhD thes. philol. scien.* Tashkent: Uzbekistan State World Languages University.
29. Yoldosh, Q., & Yoldosh, M. (2016). *Fundamentals of literary analysis*. Tashkent: Publishing House of 'Rainbow'.
30. Yoldoshev, U. (2017). Linguostylistic and linguocultural features of humorous text translation (based on Uzbek folk anecdotes translated into English). *Abs. PhD thes. philol. scien.* Tashkent: Tashkent State Oriental Studies University.